XORAZM VILOYATI HAZORASP TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 15-mart | 125-12-174-Q/25 | Hazorasp tuman hokimligi

Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 3-martda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 67-sonli qarori ijrosi haqida”gi 135-12-0-Q/25-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 67-sonli hamda bu yuzadan Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 3-martdagi 135-12-0-Q/25-sonli qarorlarining ijrosi ta’minlash maqsadida.

Qaror qilaman:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-fevraldagi“O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 67-sonli hamda bu yuzadan Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 3-martdagi 135-12-0-Q/25-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi hamda ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Tuman hokimining tegishli qarorlariga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

4.Tuman hokimining tegishli qarorlari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5.Tegishli idoralar va tashkilotlar o‘zlari qabul qilgan hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari- tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i B.Yamg‘urov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Z.Abdirimov**

Hazorasp tumani hokimining
2025-yil 15-martdagi
125-12-174-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuman hokimining qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

Tuman hokimining 2020-yil 28-fevraldagi “Xorazm viloyati hokimining 2020-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-fevraldagi “Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaliklarini hamda meva-sabzavot klasterlarini qo‘shimcha moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 102-sonli qarorining ijrosi haqidagi 73q-sonli qarori to‘g‘risida”gi 354q-sonli qarorining 2-bandi oltinchi xat boshisidagi “Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi” so‘zlari “Agrosanoatni rivojlantirish agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

“bir yildan kam bo‘lmagan muddatga tuzilgan davlat ko‘chmas mulkini ijaraga berish shartnomasi asosida yuzaga kelgan ijara huquqi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi o‘rtasida o‘zaro elektron axborot almashinuvi orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi, bunda ijara huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun to‘lovlar ijaraga oluvchi tomonidan qoplanishi belgilanganligi”.

Hazorasp tumani hokimining
2025-yil 15-martdagi
125-12-174-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan qarorlari ro‘yxati

1. Tuman hokimining 2005-yil 18-iyunda “Xorazm viloyati hokimining 2005-yil 14-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 133-sonli qarorining ijrosi haqidagi 139-sonli qarori to‘g‘risida”gi 35q-sonli qarori.

2. Tuman hokimining 2011-yil 8-noyabrda “Xorazm viloyati hokimining 2011-yil 5-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 30-iyundagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko‘rsatish tashkilotlari o‘rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib boorish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 193-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risidagi 190-sonli qarori to‘g‘risida”gi 592q-sonli qarori.

3. Tuman hokimining 2012-yil 18-aprelda “Xorazm viloyati hokimining 2012-yil 14-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 11-apreldagi “Hosildorligi past bo‘lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosi yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 106-sonli qarorining ijrosi haqidagi 103-sonli qarori to‘g‘risida”gi 388q-sonli qarori.

4. Tuman hokimining 2015-yil 30-dekabrda “Xorazm viloyati hokimining 2015-yil 19-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-dekabrdagi “Fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 362-sonli qarorining ijrosi haqidagi 297q-sonli qarori to‘g‘risida”gi 2287q-sonli qarori 6-bandining o‘n beshinchi xatboshisi.

5. Tuman hokimining 2018-yil 22-yanvarda Xorazm viloyati hokimining 2018-yil 18-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-yanvardagi “Fermer xo‘jaliklarining yer uchastkalaridan yanada samarali foydalanish va qo‘shimcha daromad olishni tashkil qilish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 25-sonli qarorining ijrosi haqidagi 28q-sonli qarori to‘g‘risida”gi 70q-sonli qarori.

6. Tuman hokimining 2018-yil 31-yanvarda “Xorazm viloyati hokimining 2018-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 53-sonli qarorining ijrosi haqidagi 51q-sonli qarori to‘g‘risida”gi 157q-sonli qarori 5-bandining o‘ttiz to‘qqizinchi xat boshisi hamda qarorga 3-ilova.

7. Tuman hokimining 2018-yil 20-avgustda “Xorazm viloyati hokimining 2018-yil 18-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 652-sonli qarorining ijrosi haqidagi 569q-sonli qarori to‘g‘risida”gi 2448q-sonli qaroriga 1-ilovaning 1-bandi.

8. Tuman hokimining 2021-yil 19-mayda “Xorazm viloyati hokimining 2021-yil 11-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 274-sonli qarorining ijrosi haqidagi 158q-sonli qarori to‘g‘risida”gi 1107q-sonli qaroriga 1-ilovaning 3-bandi.

9. Tuman hokimining 2021-yil 26-mayda “Xorazm viloyati hokimining 2021-yil 20-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-maydagi “2021-yil hosili uchun ekilgan boshoqli don hosilini o‘z vaqtida va sifatli o‘rib-yig‘ib olishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarorining ijrosi haqidagi 170q-sonli qarori to‘g‘risida”gi 1126q-sonli qarori.